



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 27-sentabr

466-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Koson tumanidagi ichki
yo‘llarning egallab turgan yer maydonini doimiy foydalanish huquqi asosida
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 23-sentabrdagi 699-son va Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 16-sentabrdagi 62-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Koson tumanidagi ichki yo‘llar egallagan, tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 15,39 gektar boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 27-sentabrdagi
466-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yil Tashabbusli budjet doirasida ichki yo‘l obyektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumot

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
			34,4	15,39
1	Koson tumani	“Yuqori Maydayobu” FUUBO Gulshantup ko‘chasi va Galabek ko‘chasi ichki yo‘llari.	3,8	1,71
2		“Boyterak” MFYda joylashgan Yang Obod, Tutzor va Istiqlol ko‘chalari yo‘llari.	3,8	1,71
3		“Sherbek” MFYning ichki ko‘chalari yo‘llari.	3,8	1,71
4		“Guvalak” shaharchasi Bahor, Bog‘ko‘cha va Boytub (yangi nomi Mustaqillik) Qarshiga chiqish yo‘li ko‘chalari.	3,8	1,71
5		“Gala” MFYda joylashgan Yangi qishloq ichki yo‘llari.	3,8	1,71
6		“Obihayot” MFYning ichki ko‘chalari yo‘llari.	3,8	1,71

7		Koson tumani O'rta Obron mahallasida joylashgan Tog' shamoli (Istiqlol) va boshqa ichki ko'chalari yo'llari.	3,8	1,71
8		Muallimlar ko'chasi bilan Qushqanot ko'chasini bog'lovchi ko'cha, Muallimlar ko'chasi bilan Janubiy Amudaryo ko'chalarini tutashtiruvchi ko'cha, Chilonzor ko'chalari va Dovyurak ko'chalari yo'li.	3,8	1,71
9		"Gala" MFY Gala qishlog'i ko'chalari.	3,8	1,71